

O`ZBeKISTON ReSPUBLIKASI XALQ TA`LIMI

VAZIRLIGI

AJINIYoZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PeDAGOGIKA
INSTITUTI

PeDAGOGIKA FAKUL`TeTI

«Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi» ta`lim yo`nalishi

«Arxitektura qurilish chizmachiligi» fanidan

MUSTAQIL IShI

Mavzu : Sharq mamlakatlari me`morchiligi

Bajargan : 3 v-kurs talabasi

S.Nagmetov

Qabul qilgan :

A. Aldabergenov

Nukus–2015

MAVZU : ShARQ MAMILAKATLARI Me`MORChILIGI

ReJA :

Kirish

I.Davlat ta`lim standartida me`morchilik san`ati bo`yicha berilgan ma`lumotlar

II.Jahonning mashhur me`morchiligi

III.Jazira (Mesopotamiya) arxitekturasi bosqichlari

Xulosa

Adabiyotlar

KIRISH

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgust qaroriga ko`ra 1999-2000 o`quv yilidan boshlab umumiy o`rta ta`lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san`at ta`limi bo`yicha ham davlat standartlari joriy etildi. Davlat ta`lim standartlarini ishlab chiqilishi avvalo O`zbekistonning mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog`lanadi.

Me'morchilik san'ati yuzasidan:

- me'morchilikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari va materiallarni;
- me'morchilikda ishlatilidagn ayrim atamalarni - me'mor, jome, minora, rovoq, mezana, ark, gumbaz, maket, muqarnas, navo, koshin, maqbara, mexrob, peshtoq, poydevor, vassa (toqi), poyustun, exrom, order, gotika, romantizm, barakko, klassitsizm, rennesans, registon, inter'er, ekster'er;
- O`zbekiston xududidan topilgan eng qadimgi me'morchilik obidalarini - Afrosiob, Varaxsha, Bolalik tepa, Tuproq qal'a v.b.

- O`zbekistonning IX-XIX asr va xozirgi zamon mashhur me'morchiligin;
- Jahonning qadimgi va xozirgi zamon mashhur me'morchiligin;
- me'morchilikda ijod qiluvchi 10-15 me'morlarning ismi va familiyasini;
- Jaxondagi mashhur 2-3 me'morning xayoti va ijodini;

ettinchi sinfni bitiruvchi o`quvchilar quyidagi malaka va ko`nikmalarni o`zlashtirishlari lozim:

- tevarak-atrofni rang-barang shakllarga nihoyatda boy va go`zal ekanligini xis etish: tasvirlangan predmetlarning shakli, tuzilishi, rangi, o`lchovlari, fazoviy xolatini mustaqil tahlil qila olish;
- tasviriy san`at asarlarini idrok etish va ularni oddiy tarzda tahlil qilish (mazmuni, g`oyasi, ifoda vositalari);

- har bir tasviriy san'at asarini san'atning qaysi tur va janriga xos ekanligini mustaqil aniqlay olish;
- 2-3 narsadan tashkil topgan natyurmortning o`ziga qarab rasmini ishlash;
- yorug`soya, rangshunoslik, perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olish;
- mazu asosida rasm ishlash uchun qiziqarli mazmun tanlay olish;
- adabiy asarlar uchun SHarq mo`jaz rangtasviri uslubida rasm chiza olish;
- haykaltaroshlikda odam, xayvon va narsalarning tuzilishi, shakli va ularning xarakterli xususiyatlari, o`lchovlari va o`lchov nisbatlarini ko`ra olish;
- xaykallar ishlashda xayvon va odam shakllarining xarakterli xususiyatlarini tasvirlay olish;
- loy yoki plastilin bilan odam va xayvonlarni shakl, o`lchov va o`lchov nisbatlarini xisobga olgan holda xaykal ishlash;
- odam va xayvon xaykallarini xarakatda tasvirliy olish.
- amaliy san'at asarlarini mustaqil tahlil qila olish;
- amaliy san'at buyumlarini kuzatganda ularning turini aniqlay olish;
- amaliy san'at buyumlari eskizini ishlaganda ularning funtsiyasi, shakli va bezak birligini xisobga olib tasvirlash;
- amaliy bezak ishlarida tegishli shakllarni stilizatsiyalash;
- iliq va sovuq koloritdi badiiy bezak ishlarini bajarish;
- bir necha bo`yoqlarni aralashtirib murakkab rang birikmalarini xosil qilish;
- me'morchilik binolari uchun loyixa eskizini ishlash;
- mavzuli rasmlarni rang va havo perspektivasi asosida tasvirlash;
- qalamtasvirda narsalarning shakliga mos holda ularni shtrixlar yordamida tasvirlash;

-bo`yoqlar bilan ranglama, qalam bilan qoralamalar ishlash.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san'at o`quv predmetining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan va ta`limning davlat standartlariga asoslangan holda ta`lim mazmuni aniqlanadi. Tasviriy san'at dasturida uning quyidagi besh turi belgilangan:

1.Borliqni idrok etish (1-4 sinflarda). 2. Badiiy qurish-yasash (1-4 sinflarda). 3. San'atshunoslik asoslari (5-7 sinflarda). 4. Naturaga qarab tasvirlash (1-7 sinflarda). 5. Kompozitsion faoliyat (1-7 sinflarda).

Borliqni idrok etish o`quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o`stirishda muhim rol o`ynaydi. Borliqni idrok etish mashg`ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o`tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak-atrofdagi nafislik va go`zallikni ko`ra bilish, idrok etish natijasida olingan tassurotlardan amaliy badiiy-ijodiy faoliyatlarda foydalanish nazarda tutiladi. SHuningdek, tabiatga qilingan sayohat jarayonida zarur hollarda ayrim ob`ekt va hodisalarni qalam, bo`yoq va boshqa badiiy materiallar yordamida xomaki rasmlari ham ishlanadi.

Bunday darslarda bolalar sinf va sinfdan tashqarida o`simgiliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko`rinishlari, kafiyati (quvonchli, g`amgin, o`ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo`ladilar. Boshlangich sinflarda borliqni kuzatish va ular haqidagi suhbatlar o`quvchilarga hayotdagi ba`zi bir hodisalarni kengroq bilib olishga yordam beradi. U narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma'lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o`stirishga ham imkon beradi.

Mavzuning dolzarbligi: Sharq mamlakatlari me`morchiliginin o`rganish orqali biz shu davrning me`morchilik bosqichlari, namunalarini bilan tanishamiz.

Ishning maqsadi va vazifalari : Shu davrga kelib badiiy san`at vakillari, san`atning g`oyaviy-badiiy mazmunini o`zgartiradi. Me`morchilar ijodida katta o`zgarishlar yuz berdi.

Tadqiqot ob`ekti va predmeti : Ob`ekti- shu davrdagi qad ko`targan binolar, predmeti–arxitektura qurilish chizmachiligi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi : Bu davr me`morchiligining xarakterli jihatni shundaki, bu davrda Sharq davlatlari me`morchiligida bosqichlar shakllandi va rivojlandi. Bu birin-ketin paydo bo`lgan bosqichlar davr qo`yan masalalarni keng va atroflicha yoritishga intilish sifatida maydonga keldi.

I.Davlat ta`lim standartida me`morchilik san`atiga bo`yicha berilgan ma`lumotlar

Hozirda har bir fan bo`yicha, shu qatori badiiy-estetik turkumdagи fanlardan davlat ta`lim standartlarining yaratilishi, uni hukumat tomonidan tasdiqlanishi katta ilmiy va aamaliy ahamiyatga ega bo`lgan voqeadir. Mazkur standartlar O`zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo`lib, u respublikamiz maktablarida ta`limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi.

Standart davlat tomonidan qo`yilgan talablarni to`g`ri va benuqson bajarish uchun imkon berishi bilan bir qatorda amaliyatda qo`llanib kelayotgan dastur, dastur, darslik va metodik qo`llanmalardagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish hamda uni o`qitilishini talablar darajasini tashkil etish imkonini ham beradi. SHuningdek, u maktablarda ta`lim ishlarini nazorat qiluvchi tashkilotlar uchun ham asosiy hujjat vazifasini o`taydi.

Davlat standartiga ko`ra tasviriylashtirish san`at ta`limi mazmuni boshlang`ich sinflarda quyidagi to`rt yo`nalishda bayon etilgan:

1.Borliqni idrok etish. 2. Badiiy qurish-yasash. 3. Naturaga qarab tasvirlash. 4. Kompozitsion faoliyat.

Beshinchchi-ettinchi sinflarda esa u quyidagi uch yo`nalishda o`z aksini topgan: 1.San`atshunoslik asoslari. 2.Naturaga qarab tasvirlash. 3. Kompozitsion faoliyat.

Mazkur yo`nalishlar bo`yicha tasviriylashtirish san`at o`quv predmetini o`qitishda har bir o`qituvchi asosiy e`tiborni nimalarga qaratilishini bilib olishi kerak bo`ladi. Tasviriylashtirish san`atni o`qitishda o`qituvchining e`tibor berishi lozim bo`lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

1.O`quvchilarni borliqdagi (tevarak-atrofdagi) va san`at asarlaridagi nafosatni ko`rishga, idrok etishga va undan zavqlanishga hamda qadrlashga o`rgatish.

2.Bolalarni ijodiy, abstrakt, mantiqiy fikrlashga, ayniqsa ijodiy qobiliyatlarini va fantaziyalarini o`stirishga yo`naltirish.

3.Tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari yuzasidan nazariy, biroq umumiy, elementlar bilimlar berish.

4.O`quvchilarda kuzatuvchanlik, ko`z xotirasi, chamalash, fazoviy tasavvur kabi shaxs uchun muhim bo`lgan sifatlarni o`stirish.

5. Rasm va naqsh, haykal ishlash yuzasidan tasviriy malakalarini o`stirish.

6. Estetik his-hayajonni tarbiyalash va rivojlantirish.

7. San'atga qiziqishni o`stirish va muhabbatni tarbiyalash.

Bu vazifalar mакtabda tasviriy san'at darsini olib boruvchi har bir o`qituvchini mutaxassis bo`lishligini talab etadi. Chunki, standart mazmuni mutaxassis o`qituvchilar uchun mo`ljallab tuzilgan.

Tasviriy san'at ta'limi davlat standarti san'atning uch turi-tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlari mazmunini aks etirgan bo`lib, u avvalo milliy o`zbek san'atini, uning badiiy an'analarini, ayrim mashhur o`zbek tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari ustalarining hayoti va ijodini, O`zbekistonda san'atning bu turlari rivoj topgan markazlarni, O`zbekistondagi yirik san'at muzeylarini bilish tasviriy san'at o`quv predmetini vazifalaridan biri ekanligini qayd qiladi. Bundan maqsad milliy san'at vositasida o`quvchilarga badiiy ta'lim berish bilan bir qatorda ularda shaxsni estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir. Milliy o`zbek san'atini chet el va jahonning hozirgi zamon ilg`or san'atiga qaraganda kengroq va chuqurroq o`rgatishdan maqsad har bir o`zbek o`quvchisi o`z halqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi, uning san'atini ham nisbatan kengroq bilishiga erishishdir. Milliy san'at ta'lim mazmunida poydevor bo`lishi lozim.

Ularni o`rganmasdan turib, yoshlarimiz badiiy madaniyatli shaxs bo`la olmaydi. Aks holda milliy qobiqqa o`ralashib qolish oqibatida ular jahon standartlari darajasiga chiqa olmaydilar. Ayniqsa yoshlarimiz qadimgi Misr, YUnioniston, hindiston me'morchiligi, Afg`oniston, Iraq, Turkiya miniatURA rangtasvir asarlari, evropada Uyg`onish davri tasviriy san'ati, rivojlangan /arb mamlakatlarining hozirgi zamon tasviriy va me'morchilik san'ati namunalarini o`rganmasdan va bilmasdan turib madaniylashgan shaxs bo`lish mumkin emas.

Davlat ta'lim standartlari talablarini faqat o`quv rejalarida ajratilgan vaqt hajmida muvaffaqiyatli bajarib bo`lmaydi.

CHunki yuqorida qayd qilinganidek, ta’lim mazmuniga doir o`quv-metodik majmualar, moddiy texnikaviy asos, yuqori malakali o`qituvchilarning etishmasligi, mavjud muammoni bir muncha murakkablashtiradi. Bu esa o`quvchilarning darsdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishni samarali shakllari va yo`llarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etishni taqozo etadi. Mazkur muammo bevosita o`quvchilarning mustaqil ishlari uchun tegishli adabiyotlar, xrestomatik materiallar, moddiy-texnikaviy materiallar, o`quv va metodik yo`l-yo`riqlarni ishlab chiqish bilan bog`langan. hattoki, bu masalada ota-onalarning vazifalari, ish mazmuni haqida o`ylab ko`rish, ularga ma’lum yo`l-yo`riq va tavsiyalar berish foydadan holi emas. Masalaga ana shunday yondashuv ta’lim standartlarida ko`rsatilgan bilim va malakalarning minimum darajasini o`quvchilar tomonidan o`zlashtirishgagina ta’sir ko`rsatibgina qolmay, balki uni maksimumga ko`tarish imkonini ham beradi.

Ma’lumki, bolalarning ta’lim standartlari asosida olgan bilim va malakalarini qanday o`zlashtirganlik darajasini ham tekshirib boriladi. Bu esa standartni sinflar bo`yicha ishlab chiqish lozimligini taqozo etadi.

U tasviriy, amaliy, me’morchilik san’atlari bo`yicha atama va iboralar, tushuncha va ma’lumotlar, o`zlashtirilishi lozim bo`lgan malakalarni o`z ichiga oladi. Bu materillarni bolalar tomonidan o`zlashtirilishini nazorat qilish esa ularning bilimlarini tekshirishga doir test materillarini, bolalar tomonidan bajarilgan tasviriy ishlarni baholash mezonlari va boshqa materillar tayyorlash aloqida aqamiyat kasb etadi. Ular o`z o`rnida o`quvchilarning bilim va malakalarini tez va oson baqolash imkonini beradi.

Davlat ta’lim standartida tasviriy san’at ta’limi mazmuniga bo`lgan majburiy minimum talablar bayon etilgan. O`qituvchi uni bajarishi shart. Lekin o`qituvchi shu bilan chegaralanib qolmasdan uni chuqurlashtirishga harakat qilishi lozim. Biroq ta’lim mazmunini yuqori darajaga olib chiqaman deb bolalarga keragidan ortiq talablar qo`yish, ularni qiynash ham mumkin emas. SHuni ham yoddan chiqarmaslik lozimki, maktablarimiz nomi umumiyl o`rta ta’lim maktabi deb ataladi. Demak maktablarimizda umumiyl, elementlar bilim va malakalar berilishi lozim.

Davlat ta’lim standartlari bo`yicha boshlang`ich maktablarning to`rtinchi sinfini bitiruvchi o`quvchilar bevosita quyidagilarni bilishlari lozim:

Tasviriy san'at darslarida ishlatiladigan ish qurollari va materiallarni-albom, qalam, mo`yqalam, stek, bo`yoq, politra, guash, akvarel;

-rang nomlarini-oq, qora, qizil, sariq, moviy, yashil, zarg`aldoq, binafsha, zangori, jigarrang, kulrang, och qizil, to`q qizil, moshrang, sabza, pushti, qirmizi, pistoqi, lojuvard, lolaro`y;

-tasviriy san'at darslarida ishlatiladigan o`quv qurollari bilan to`g`ri munosabatda bo`lish qoidalarini;

-15 ta atrofida ijod qiluvchi rassom va haykaltaroshlarning ismi va familiyasini hamda ularning asarlarining nomlarini:

4-5 ta loydan halq o`yinchoqlari va kulolchilik buyumlarni yaratuvchi kulollarning ismi va familiyasini;

-asosiy va hosila ranglarni, xromatik va axromatik ranglarni, iliq va sovuq ranglarni;

-naqsh turlarini-yo`lsimon naqsh, to`rtburchak naqsh, kvadrat naqsh, doira naqsh;

-amaliy san'atda ishlatiladigan gul nomlarini-barg, dubarg, sebarg, oygul, bodom, shobarg, paxtagul;

-amaliy san'atda ishlatiladigan atamalarni-rassom, rang, rasm, shakl, aplikatsiya, ritm, simmetriya, asimetriya, suvrat, format;

-badiiy qurish-yasash ishlarida ishlatiladigan - badiiy, tabiiy va tashlandiq materiallarni.

Boshlang`ich makteblarning to`rtinchchi sinflarini bitiruvchi o`quvchilar quyidagi malaka va ko`nikmalarni o`zlashtirishlari lozim:

Oddiy qalam, mo`yqalam, stek, qaychi bilan ishlay olish; to`g`ri, og`ma va egri chiziqlar chizish; oddiy narsalarning shaklini qalam, mo`yqalam steklar bilan tasvirlay olish; ma'lum o`lchovdagi chiziqni bir nechta teng bo`laklarga bo`lish; akvarel va guash bo`yoqlaridan to`g`ri foydalana bilish-bo`yoqni eritish, aralashtirish; asosiy ranglarni aralashtirish orqali hosila ranglarni olish; eng sodda naqshlar chiza olish; rasm, suvrat va illyusratsiyalarda ifodalangan tabiat hodisalari (yil fasllari, ob-havo), qush, hayvon va odamlarning xarakterli va harakatli holatda tasvirlay olish; manzara va turmush janridagi suratlar haqida elementar fikr yuritish (menga yoqdi, hammasidan ham yoqdi, yoqmadi

kabilar); loy va plastilin, tabiiy, badiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlay olish; belgilangan qog`oz yuzasini tekis bo`yash; tabiat manzaralaridagi go`zallikni idrok etish va undan zavqlanish; haykal ishlaganda ulardagi obraz va narsalarni o`zaro bog`liq holda tasvirlash; loydan ishlangan o`yinchoqlarni guash bo`yog`i bilan bo`yay olish; rasm ishlaganda qog`oz o`lchovi va formatini to`g`ri olish; tevarak-atrofdagi tabiat manzaralari va mehnat jarayonlaridagi go`zalliklarni ko`ra olish va ulardan zavqlanish; tavsiya etilgan ertak va hikoyalar mazmuni asosida rasm va haykal ishlash; narsalarni rasmini chizmasdan turib ularni shaklini mo`yqalam bilan tegizib olish yo`li bilan hosil qilish; ijodiy tarzda yo`lsimon, kvadrat, to`rtburchak, doira shaklida naqshlar ishlay olish; naqshlar ishlashda geometrik va o`simliksimon unsurlardan bemalol foydalana olish; narsa va hodisalarning fazoviy holatini rasmda tasvirlay olish; bola o`zi yasagan haykalga bezak unsurlarini stek yoki qo`l bilan hosil qila olish; mavzu asosida rasm ishlaganda ulardagi asosiy va qiziqarli unsurlarni kompozitsiyada joy, o`lchov va rang jihatdan ajratib tasvirlash.

ettinchi sinfni bitiruvchi-o`quvchilar quyidagilarni bilishlari lozim:

Tasviriy san'at yuzasidan;

-rassomlarning asoiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini-molbert, etudnik, xolost, mo`yqalam, mastexin, bo`yoqlar, (yog`li, akvarel, guash, v.b.) pastel, sous, ugol, sangina v.b.;

haykaltaroshlarning asosiy ish qurollari va ishlatadigan materiallarini - dastgoq, bolg`a, stek, loy, tosh, yog`och, v.b.;

-grafikachi rassomlarning ish qurollari va ishlatadigan materiallarini;

-rangtasvida ishlatadigan atamalarni (natura, fon, perspektiva, chiziqli perspektiva, rang perspektivasi, havo perspektivasi, ufq chizig`i) eskiz, yorug`, soya, blik, refleks, shaxsiy soya, tushuvchi soya, janr, kompozitsiya, reproduktsiya, avtoportret, freska, mozaika, vitraj, dastgohli rangtasvir, minatura rangtasviri, monumental rangtasvir, dekorativ rangtasvir, qoralama, ranglama, etud, original, slayd, kolorit, gamma, mumtoz san'at;

-haykaltaroshlikda ishlatiladigan ayrim atamalarni-dastgohli haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik, plastik haykaltaroshlik, istirohat-bog` haykaltaroshligi, real haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, relef, gorelef, barelef;

-grafikada ishlatiladigan asosiy atamalarni-gravyura, linograyura, litografiya, ksilografiya, estamp, gazeta jurnal grafikasi, karikatura, plakat, zarhal harf, boshbezak, yakuniy bezak, zarvaraq, illyustratsiya, etiketka, upakovka;

-O`zbekiston hududidan topilgan eng qadimgi rangtasvir va haykaltaroshlik namunalarini;

-O`zbekistonning hozirgi zamon tasviriy san'atini;

-tasviriy san'atning janrlarini-manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, batal, portret, afsonaviy, animal, marina;

-rang nomlarini - barikaram, gulnor, nilgun, siybob, malla, sadaf, lojuvard, shingob, novvoti, axmar, to`tiyo, firuza, novshadil, to`tigiy, nilobi, tilla hal, kumush xil;

-O`zbekiston va jahonning dunyoga mashxur 5-6 rassomning hayoti va ijodini;

-rangtasvir, haykaltaroshlikda, grafikada ijod qiluvchi 50-60 rassom, haykaltarosh, grafiklarning ismi va familiyasi hamda ularning asarlarini;

-tasviriy san'atdagi asosiy oqimlarni;

-SHarq miniatURA rangtasviri maktablarini;

-Movaraunnahr minatyura rangtasviri maktablarini;

-O`zbekiston va jahonning mashhur tasviriy san'at muzeylarini.

Amaliy-bezak san'ati yuzasidan:

Amaliy bezak san'ati ustalarining asosiy ish qurollari va ularning ishlatadigan materiallarini;

-amaliy bezak san'atida ishlatiladigan ayrim atamalarni-naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`ymakorligi, misgarlik, kashtachilik, sopoldo`zlik, zardo`zlik, ko`pbarg, chinnigul, gullola, bodomgul, marg`ula, gulsafsar, qo`sband, stilizatsiya, islimiy, girix, gulli girix, nomoyon, ochiq naqshlar, cheksiz naqshlar:

-amaliy bezak san'atida ijod qiluvchi mashhur 10-15 ustalarning familiyalari va ismlarini;

Jahondagi mashhur 3-4 amaliy san'at ustasining hayoti va ijodini;

-O`zbekistonda halq amaliy bezak san'ati rivoj topgan markazlarni; Toshkentdagi O`zbekiston halq amaliy san'ati muzeyini.

Me'morchilik san'ati borasida esa me'morchilik san'ati va uni atrof-muhit bilan bog`liqligi, me'morchilikda go`zallik, maqsadga muvofiqlik haqida tushunchalar berish, individual va ijtimoiy me'morchilik, ularing turlari bilan tanishtirish, binolarning vazifasi va ularning estetik echimining o`zaro bog`liqligi, fasad va inter`erdagi dekorativ bezaklarning xarakteri, me'morchilikda qo`llaniladigan asosiy atamalar haqida fikr yuritiladi. Binolarning tashqi va ichki badiiy bezaklarining xarakteri, ularda ishlatiladigan materiallar bilan ham tanishtiriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun O`zbekiston xududidagi eng qadimgi me'morchilik obidalari, O`zbekiston IX-XIX asr me'morchiligi, SHarq va /arb mamlakatlarida Uyg`onish davri me'morchiligi, O`zbekiston va jahonning hozirgi zamon ilg`or me'morchiligi yuzasidan mashg`ulotlar olib boriladi.

Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarida qayd qilinganidek, bolalarga san'atshunoslik asoslaridan quyidagilar haqida bilimlar berishni nazarda tutadi:

1.Tasviriy san'at-san'atning bir turi ekanligi va uning kishilar hayotidagi o`rni va ahamiyati. O`zbekiston xududida tasviriy san'atning taraqqiyoti (Afrasiob, Varaxsha, Tuproq qal'a v.b. joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari). Tasviriy san'atning turlari (rangtasvir,grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marina). Rangtasvir turlari-dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, miniatura rangtasviri. Rangtasvir texnikasi-freska, mozaika, vitraj.

2.Haykaltaroshlik turlari-dastgohli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik; Relef (barelef, gorelef); yumaloq haykallar.

3.Grafika turlari-dastgohli grafika, estamp, plakat, kitob grafikasi; gazeta-jurnal grafikasi; targ`ibot va tashviqot grafikasi; etiketka, upakovka, v.b.

4.Movaraunnahr miniatura maktabi; SHarq miniatura maktablari. evropada Uyg`onish davri tasviriy san'ati; O`zbekistonning hozirgi zamon

tasviriy san'ati; Jahonning hozirgi zamon ilg`or tasviriy san'ati; jahon tasviriy san'atidagi asosiy oqimlar; dunyoning eng yirik tasviriy san'at muzeylari; O`zbekistonning eng yirik tasviriy san'at muzeyi. Jahonga mashhur eng buyuk rassomlarning hayoti va ijodi (Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, O`rol Tansiqboev, CHingiz Axmarov v.b.).

Naturaga qarab rasm ishslash mashg`ulotlari narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, ularning xarakterli, tipik belgilarini bilish imkonini beradi. SHu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, xotira, estetik did, obrazli tafakkur kabi eng muhim tasviriy malakalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ular tik, yotiq, og`ma, egri, to`lqinsimon chiziqlarni chizish, bo`yoqlar bilan tegishli yuzani bir meyorda bo`yash, och tusdan to`q tusga va aksincha to`qdan ochga o`tish, o`quvchilar to`g`ri va egri chiziqlarni teng bo`laklarga bo`lish malakalarni o`zlashtiradilar. CHizilayotgan rasm mazmunidan kelib chiqqan holda qog`oz formatini to`g`ri tanlashni hamda rasmni qog`ozda kompozitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishni o`rganadilar. SHuningdek, rasmni bosqichlar asosida ishslashni o`zlashtiradilar.

Naturaga qarab rasm ishslash mashg`ulotlarida o`quvchilar mo`yqalam, rangli qalamlar, akvarel, guash bo`yoqlari bilan ishslash yo`llarini o`rganadilar, imkoni bor joylarda ko`mir (ugol), sous, pastel, sangina kabi materiallar bilan ham ish olib boradilar.

Amaliy ishlarda odam, hayvon, qushlar gavdasining tuzilishi, ular qismlarining o`lchov nisbatlari, shakllarini to`g`ri aks ettirish malakalari takomillashtiriladi. YOrug`soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya yuzasidan nazariy ma'lumotlar berish bilan bir qatorda o`ziga qarab alohida va natyurmort ishslash yuzasidan amaliy ishlar bajariladi.

Tasvirlash jarayonida naturani tahlil qilish, ularning qismlarini bir-biri bilan taqqoslash, umumlashtirish kabilar rasm ishlovchining e'tibor markazida bo`ladi. Bunda, ayniqsa, chiziqlar ravonligi, ranglarning nafis va mutanosibligi, ifodalangan go`zallikni zehnlab tasvirlay olishga alohida e'tibor beriladi.

YUqorida qayd qilingan vazifalar 1-2 soat davomida va qisqa muddatda (5-10 daqiqa) bajariladigan qoralama va ranglamalar shaklida bajariladi. Bu ishlar alohida mavzu asosida yoki mashg`ulot mazmunidan kelib chiqqan holda darsning boshlanish, o`rta yoki oxirida amalga oshiriladi. YUqorida qayd

qilingan vazifalar va topshiriqlar o`simlik va daraxt barglari, turli shakl va rangdagi gullar, meva va sabzavotlar, hunarmandchilik va amaliy san`at buyumlarini alohida va to`p holda natyurmort tarzida rasmini chizdirish orqali amalga oshiriladi.

Naturaga qarab bajariladigan topshiriqlar qush, hayvon, odam tasvirlarini to`la yoki xomaki rasmini ishlashni ham nazarda tutadi.

Boshlang`ich sinflarda ko`proq bolalarning tasviriy imkoniyatlari mos keladigan bayroqcha, soat, havo shari, o`yinchoq mashinalar, ninachi, kapalak, tilla qo`ng`iz kabi hashoratlarni rasmini ishlash nihoyatda qo`l keldi. Bunday mashg`ulotlar uchun natura tanlashda o`qituvchi, ularning estetik ko`rinishiga, shakl, rang jihatidan bolalarda qiziqish uyg`otadigan bo`lishligiga o`z e`tiborini qaratadi.

Kompozitsion faoliyat o`z mazmuniga ko`ra uch qismga bo`linadi. 1. Rangtasvir kompozitsiyasi. 2. Dekorativ kompozitsiya. 3. haykaltaroshlik kompozitsiyasi.

Kompozitsion faoliyat o`quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatni, o`z fikr va taassurotlarini rasmda obrazli qilib tasvirlash hamda badiiy didni o`stirishni maqsad qilib qo`yadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg`ulotlari tevarak-atrofdan olingan ko`rinish va hodisalarini uning barcha janrlarida (manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, animalistik, afsonaviy, marina) amaliy ishlar shaklida bajarishni nazarda tutadi. Bu amaliy ishlar bevosita yorug`soya, rangshunoslik, perspektiva yuzasidan olib boriladigan nazariy bilimlar bilan bog`liq holda amalga oshiriladi. Bunday amaliy mashg`ulotlarda bolalar naturani kuzatish, (qoralama, ranglama, uzoq davom etadigan rasm ishslash) xotiradan, tasviriy san`at asarlaridan olgan bilim va malakalarga tayangan holda ish olib boradilar. O`quvchilar tanlangan mavzuga ko`ra uning elementlarini qog`oz yuzasida bir-biriga bog`liq holda joylashtirish, yaxlit kompozitsiyani hosil qilish, mavzu mazmuniga mos keladigan kompozitsiyani topish uchun bir qancha xomaki ishlar, eskizlar ishlaydilar. Kompozitsiya tuzishda bolalar obrazlarning tipik belgilarini tanlab olib, qismlarning o`rnini almashtirib, qo`shimcha detallar kiritish orqali kompozitsiya mazmunini boyitish kabilarga alohida e`tibor beradilar. Unda kompozitsiyaning bir butunligi, qismlarni, shakllarni, ranglarni

xillashtirish va ular o`rtasidagi bog`lanish va kontrastlik, asardagi hamma vositalarning bosh g`oyaga bo`ysindirish kabi qonun va qoidalar hisobga olinadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi darslarida o`quvchilar bo`yoqlar bilan tasvirlash, tasvirda asosiyni bo`rttirib ko`rsatish, tasvirda uzoq-yaqinlikni ifodalashda perspektiva qoidalariga amal qilishni o`rganadilar.

Dekorativ kompozitsiya mashg`ulotlarida badiiy-bezak ishlarida foydalaniladigan yo`lsimon, kvadrat, to`rburchak, doira naqshlar, ochiq va yopiq naqshlar, nomoyon naqsh namunalaridan ko`chirish va mustaqil ijodiy ishlarni o`rganadilar. Bu ishlar bevosita buyum bezagi bilan bog`liq holda amalga oshiriladi.

SHuningdek, taklifnomा, tabriknomalar tayyorlash kabi amaliy ishlar ham bajariladi. Milliy va chet el xalqlarining liboslari uchun eskizlar tayyorlanadi, tabiiy shakllarni stilizatsiyalash yuzasidan mustaqil ishlar olib boriladi. Dekorativ kompozitsiya mashg`ulotlarida halq ertaklari, hikoyalari, dostonlar, she'rlar mazmuniga eskizlar ishslash katta o`rinni egallaydi. Bunda bolalar kitoblarni ichki va tashqi (muqova) bezagiga doir (bosh bezak, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiya) ishlarni bajaradilar. Dekorativ ishlarda o`quvchilar buyumlarning vazifalari, ularning shakli, bezak elementlarining o`zaro bog`liqligi haqida elementar tushunchalarga ega bo`ladilar hamda yuksak mahorat bilan tasvirlangan narsalarni didsiz, pala-partish ishlangan narsalardan farq qilishni o`rganadilar.

Dekorativ kompozitsiya darslarida bolalarga har qanday naqshlarning elementlari tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan olingani haqida tushuncha beriladi. Binobarin, naqsh ishslash mashg`ulotlarida rasm ishlovchi real shaklni o`zgartirishi, uni soddalashtirishi, unga yangi elementlarni qo`shishi mumkinligini o`rganib oladi.

SHu bilan birga o`quvchilar turli xalqlarning bugungi dekorativ-amaliy san'ati hamda dizayn san'ati bilan tanishadilar. Dizayn ishlarida bolalar dazmol, choynak uchun taglik, quticha, libos uchun bezak eskizi, televizor, kreslo, engil avtomobilni yangi markasi eskizlarini ishslash bilan shug`ullanadilar.

II. Jahonning mashhur me`morchiligi

Jahon xalqi tez ko`payib bormoqda. So`nggi ma'lumotlarga qaraganda er kurrasida aholi kuniga 100 000 kishiga oshmoqda. Bu esa kishilarni turar joy va ijtimoiy, o`quv, savdo, madaniyat, sport inshootlariga bo`lgan ehtiyojlarini keskin oshirib yuboradi. Natijada jahonning barcha mamalakatlari, shu jumladan O`zbekistonda ham me'morchilikka talab oshadi. Bu esa ma'muriy, turar joy, madaniyat va sport inshoatlari kurashni kengaytirishni nazarda tutadi.

Jahonning hozirgi zamon me'morchiligidagi binolarning kup kuvatli bulishiga xarakat kilinayotir. Xususan, CHikogoning Sies Tayer binosi 443 metrli bulib jaxondagi eng baland bino xisoblanadi. AKSHning «Skidmor Ouangs end Merill» firmasi 164 kavatli, amerikalik mashxur me'mor Farishman 3200 metrli bino loyixalarini ishlab chikkanlar. SHunga karamasdan kup kavatli binolarning kishilar xayoti uchun zararli jixatlari xam kuzga tashlanmokda. Mutaxasislarning fikrlariga Karaganda kup kavatli uylar mavjud joylardagi kuchalarda transport xarakati ogirlashadi, shovkin kuchayadi, xavo ifloslanadi, yongin chikish imkoniyati kupayadi, kuchalarda sanitariya axvoli va kishilarning sogligi yomonlashadi. v.b. bu xol kup kavatli binolar kurishni maksadga muvofik emasligi, kam kavatli binolar va ularni boglar kuynida kurish kup jixatdan ustunliklarga ega ekanini kursatmokda. Frantsiyada 1946 yilda sharsimon shakldagi va sintetik materiallardan ishlangan, xavo bilan tuldiriladigan binolar paydo bulgan ularni 10-15 minutda xosil qilish, 40 minutda yigish mumkin. Ulardan kurgazma, kontsert, savdo va boshqa shu kabi tadbirlar utkazilganda foydanilmokda.

Me'morchilikning tez rivojlanishi uning bir qator yo`nalishlarga bulinishiga sabab bulmokda.

Xususan, sanoat korxonalari me'morchiligi, metrosozlik me'morchiligi, ma'muriy binolar me'morchiligi, sport inshoatlari me'morchiligi, o`quv muassasalari va boshqalar.

Hozirgi zamon me'morchiligi xar bir mamlakatning xududiy, tabiiy, iklimiy sharoitlari, usha mamlakat xalkining turmush tarzi, madaniyati, milliy

badiiy an'analari asosida tarakkiy topmoqda. Albatta bunda yangi kurilish materiallarining soni xam kupayib, me'morchilik rivojiga ta'sir kursatmokda.

Hozirgi zamon me'morchiligi tarakkiyotida uning kuyidagi asosiy belgilari kuzga tashlanmokda. Ular:

- inshootlarning ko`p qavatligi
- inshootlarning zilzilaga bardoshligi
- turli oyna, temir-beton materialarni kullanilishi
- turar joy va maishiy binolarning uygunlashuvi (turar joy, savdo, o`quv, madaniy, xizmat kursatish, sport muassasalari v.b.)
- inshootlarning tevarak – atrof va tabiat bilan boglikligi

Inshootlarning kurishda yana asosiy uch jixatga e'tibor berilmokda va ular uzaro boglik xolda amalga oshirilmokda.

Ular: 1. Bino funktsiyasi. 2. Binoning konstruktiv elementlari. 3. Binoning dekarativ elementlari.

Me'morlar kelajak binolari ekskalatorli, yulakli, u shaxarning u boshidan bu boshiga 10-15 minutlar atrofida borsa buladigan axolisi 3 mln. dan kam bulmagan kup kavatli shaxarlarning loyixalari ishlab chikmokdalar. Yaponiya me'morlari bir mln. kishi sigadigan suvda suzib yuradigan shaxar loyixasini tavsiya etmokdalar. Ularning fikrlariga Karaganda kelajakda kishilarning turar joylari ko`proq okean va dengizlarda joylashadi.

YAngidan ko`rilayotgan binolarning yana bir kizikarli jixatlari shundan iboratki, ular bir xil geografik muxitda turlicha kompazitsiyalarga ega. Xususan, tura rjoy binosini namana sifatida kursatiladigan bulsak, bir erda u baland minora shaklida bulsa, yana boshqa bir joyda tsilindr va kesik konus shaklida, yana bir boshqa erda uzun va aylanma shaklida kurilmokda.

YAngi kurilayotgan binolarning ba'zilari tantanavor va bayramona bulsa, boshqasi jiddiy, yana boshqasi lirik xarakterga ega. Ba'zan binolar engil va soda tuyulsa, boshqasi ogir va murakkab kurinadi. Ularning fakturasining ba'zilari tekis va bezaksiz bulsa, boshqalari relefli va rangdor kilib ishlanmokda. Me'morchilik binolarining kurishda ba'zi me'morlar ritm va simmetriyaga rioya kilinsa, boshqalari ularni assimetrik bulishiga va ritm bulmasligiga xarakat kilmokdalar.

Jahonning mashhur me'morchiligi namunalaridan biri Tojmahal-Hindistonning Agra shahri yaqinidagi Jamno daryosi buyidagi binodir. Boburiylardan Sulton shoxjaxon va uning xotini Mumtoz maxal makbarasini Sulton uzining sevimli rafikasi vasiyatiga buniyod ettirgan. Bino kurilishda Urta Osiyo, Eron, Janubiy evropa me'morchiligining yutuqlaridan keng foydalaniqgan. Uni turk me'mori Ustod Muxammad Isoxon afandi boshchiligida 1632-50 yillarda ok marmardan gumbazli, devorlarini qimmatbaxo rangli toshlardan (xakik, marvarid, sadaf, kaxrab, zumrad, yokut, fil suyagi v. b) mozaika usulida bezatib ishlagan. Sagana kuyilgan xona katta gumbaz bilan koplangan bosh bino bulib, 104x104x7 m supa ustida joylashgan supaning atrofida buyi 45 metrlik turtta minora bor. Zinapoyadan supaga chikilib, uyma nakshlar bilan bezatilgan marmar eshik orqali makbaraga kiriladi. Makbara SHri Lankaning kora marmaridan ishlangan bulib, mozaika usulida nafis bezatilgan. Uning devorlarida bu bino buniyodkorlarining ismlari yozilgan. Ular orasida Samarqandlik Muhummad SHarif, buxorolik Usta ota Muhammadlarning nomlari bor. Obida xiyobonlar va katta bog bilan qo'rshalgan.

Bolalarga ayrim me'morchilik asarlari namoyish etilar ekan, O`qituvchi bolalarga kuyidagi mazmundagi savollar bilan murojat etadi.

- bu binolar qaysi mamalakatga xos?
- uning boshqalardan farqi qaysi jihatni bilan ko`zga tashlanadi?
- bu binoni qaysi asrlarda ko`rilganligini bilsa bo`ladimi?
- bu binoni kurishda kanday materiallardan foydalaniqgan?
- bu binoning qaysi jihatlari tomoshabinda yaxshi taasurot qoldiradi? Nima uchun?

2. Jazira (Mesopotamiya) arxitekturasi bosqichlari

Dajla va Frot daryolari vohasida, O`rta er dengizi havzasining sharqiy qismi sohillari hamda Kichik Osiyoning markaziy tog`li rayonlari territoriyasida eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardan 539 yilgacha Shumer, Aiqad, Ossuriya, Urartu, Bobil kabi qator davlatlar mavjud bo`lib, ular jahon arxitektura tarixiga o`z hissalarini qo`shishgan.

Bu davlatlarning so`nggisi Bobil (Vaviloniya) eramizdan avvalgi 539 yili Eron tomonidan tobe qilib olinadi va shu bilan Old Osiyoning qadimiy tarixi tugatiladi.

Old Osiyoning badiiy-tarixiy yodgorliklari Misr arxitekturasi singari keng va rang-barang. Bu erda ham hashamatli saroy va ibodatxonalar qurildi. Lekin bu yodgorliklar bizgacha etib kelmadi. Bunga sabab Old Osiyoning asosiy qismini tashkil etgan. Ikki daryo oralig`i (Mesopotamiya) da bir-birini almashtirib turgan yangi-yangi davlatlar o`rtasida mamlakatga hukumronlik qilish uchun doimiy kurash borgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, me`morlik va tasviriy san`atning turlarini rivojlantirishi uchun tosh, yog`och va metallarning etarli bo`lmaganidan, deyin mumkin. Saqlanib qolgan yodgorliklar, ularning qoldiqlari Old Osiyoda eramizdan avvalgi 4000-3000 yillardayoq bu erda o`ziga xos arxitektura paydo bo`lganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi.

Old Osiyo san`atida ham monumental me`morchilik etakchi o`rinni egallagan. Mesopotamiya me`morligining o`ziga xos xarakterli tomonlari eramizdan avvalgi 4 ming yillikda Shumer madaniyati shakllangan paytlarda yuzaga keldi. Bu davrga kelib odamlar yashaydigan yirik manzillar markazi baland sun`iy eki tabiiy tepaliklar ustiga qurilgan monumental saroylar markaz vazifasini o`tay boshlagan.

Ular asosan, xom g`ishtdan ishlangan, devor yuzasi pishiq g`isht parchin va qisman toshlar bilan qoplab chiqilgan. Binoning tashqi devori tokchalar va yarim ustunsimon vertikal` chiziqlar bilan ajratilgan. Bu hajmlar binoda yorug`-soya mosligini kuchaytirib, uning tantanavor ko`rinishini oshirgan. Bu xususda El`-Obeydag`i saroy (er.av. 3000 yillar) xarakterlidir. Saroy sun`iy tepalik ustiga qurilgan bo`lib unga zinalar bilan chiqilgan. Devorning ichki va tashqi tomondagi yarim ustunsimon, hajmlar uning pishiqligini oshirishga xizmat qilgan.

Old Osiyo me`morchiligining yana bir o`ziga xos xususiyati, ibodatxonalar oldiga qurilgan, tepaga tomon kichrayib boruvchi supachalardan tashkil topgan zikiurat hisoblanadi. Bu supachalar zinalar bilan bog`langan.

Zikiuratning eng yuqori qismi xona bo`lib, u erda oltindan yasalgan stol bo`lgan. Afsonalarga ko`ra, xudo o`z qoxinlari bilan shu stol atrofida gaplashgan.

Old Osiyoning qadimgi davrga xos bo`lgan tasviriy san`at xususiyatlari Shumer va Aqqad davlatlarida ko`rinadi. Aqqash podsholigi (er.av. XXIV-XXII asrlar) davrida Old Osiyo erlari yagona davlatga birlashtirildi. Er.av. 1 ming yillikda Ossuriya yirik quldorlik davlatiga aylandi. Er.av. VII asrga kelib, u butun Old Osiyoni o`ziga bo`ysundirib oldi va yagona davlat tashkil etdi.

Shu davrda hashamatli saroy, ibodatxonalar vujudga keldi.

Durr-Sharruken (hozirgi Xorsobod) dagi Sargon II saroyi xarobalari (er.av. VIII asrning ikkinchi yarmi) shu davr monumental me`morchiligining xarakterli tomonini ko`rsatishda muhim o`rin tutadi. Bu saroy balandligi 14 m. bo`lgan sun`iy tepalikga qurilgan bo`lib, u qalin devor bilan o`ralgan. Saroy mehmonxona, yotoqxona va diniy marosimlarga mo`ljallangan xonalardan iborat bo`lib, ular alohida ochiq hovli atrofida joylashtirilgan. Saroyga kiraverish darvozalarining ikki yon tomoniga esa qantoli , odam boshli buqashedu o`rnatilgan. Bu haykal tabiiy kuchlar ramzi bo`lib, podshoni «yomon ko`zdan» saqlashda xizmat qilgan. Kal`xudagi Ashshurbanapal II (er.av. 883-859 yillar). Nanevidagi Ashshurbanapal (er.av. 669-635 yillar) saroylari burtma tasvirlari ham mashhurdir. Er.av. 612 yili Ossuriya Bobil va Midiya podsholigi yurishlari tufayli o`z umirini tugatdi. Lekin uning arxitekturasi qadimgi dunyo xalqlari arxitekturasi rivojigav katta ta`sir qildi. Er.av. VII asr oxiriga kelib, Bobil yangi rivojlanish davrini boshidan kechira boshladi. Navuxodonosor II (er.av. 605-562 yillar) podsholik qyoilgan yillar Bobilda shahar qurilishi ishlari avj oldirib yuborildi, shahar qurilishi plan asosida tiklanib, yangi binolar qurildi, atrofii qalin devor bilan o`rab chiqildi. Shaharning sakkiz darvozasi bo`lib, ular ichida Ishtar darvozasi o`zining ko`rkam vva serhashamligi bilan ajralib turar edi. Shu darvozadan shaharning bosh ibodatxonasiha boradigan yo`l boshlanar edi. Bosh ibodatxona yonida esa to`qson metrli katta Bobil minorasi qurilgan edi. Navuxodonosor II saroyi ham serhasham, bezakga ega bo`lib «osma bog`lar» qo`ynida ertaknamo ko`rinish kashf etgan edi. Bobil san`ati uzoqqa cho`zilmadi. Eramizdan avvalgi 539 yili Eron qo`shinlari tomonidan bosib olindi. Shu bilan Old osiyo xalqlari qadimiy arxitekturasi tarixi o`z umrini tugatdi.

XULOSA

Me'morchilikning tez rivojlanishi uning bir qator yo`nalishlarga bo`linishiga sabab bo`lmoqda.

Xususan, sanoat korxonalari me'morchiligi, metrosozlik me'morchiligi, ma'muriy binolar me'morchiligi, sport inshoatlari me'morchiligi, o`quv muassasalari va boshqalar.

Hozirgi zamon me'morchiligi har bir mamlakatning hududiy, tabiiy, iklimiy sharoitlari, usha mamlakat xalkining turmush tarzi, madaniyati, milliy badiiy an'analari asosida tarakkiy topmoqda. Albatta bunda yangi kurilish materiallarining soni ham ko`payib, me'morchilik rivojiga ta'sir ko`rsatmoqda.

Hozirgi zamon me'morchiligi tarakkiyotida uning kuyidagi asosiy belgilari kuzga tashlanmokda. Ular:

- inshootlarning ko`p qavatligi
- inshootlarning zilzilaga bardoshligi
- turli oyna, temir-beton materiallarni kullanilishi
- turar joy va maishiy binolarning uygunlashuvi (turar joy, savdo, o`quv, madaniy, xizmat kursatish, sport muassasalari v.b.)
- inshootlarning tevarak – atrof va tabiat bilan boglikligi

Inshootlarning kurishda yana asosiy uch jihatga e'tibor berilmoqda va ular uzaro bogliq holda amalga oshirilmohda.

Ular:1. Bino funktsiyasi. 2. Binoning konstruktiv elementlari.
3. Binoning dekorativ elementlari.

Me'morlar kelajak binolari ekskalatorli, yulakli, u shaharning u boshidan bu boshiga 10-15 minutlar atrofida borsa buladigan aholisi 3 mln. dan kam bulmagan kup kavatli shaharlarning loyixalari ishlab chiqmoqdalar. YAponiya me'morlari bir mln. kishi sigadigan suvda suzib yuradigan shahar loyihasini tavsiya etmoqdalar. Ularning fikrlariga qaraganda kelajakda kishilarning turar joylari ko`proq okean va dengizlarda joylashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI :

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent, 1997 yil 29 avgust
- 2.Ta`lim to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi qonuni.Toshkent, 1997,
29 avgust
- 3.I.A.Karimov. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin».T., 1994
- 4.I.A.Karimov. «Bunyodkorlik yo`lidan». II-tom, T., 1996
5. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». Toshkent. 1999
6. I.A.Karimov. «Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch».Toshkent. 2008
- 7.I.A.Karimov. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent,
2012
8. Abdullaev N. «San`at tarixi». T-1. T.,1986
9. Abdullaev N. «San`at tarixi». T-2/1. T., 2001
10. Vseobshaya istoriya iskusstv v 6 tomax. M.1956-66
- 11.Dmitrieva I. «Kratkoe istoriya iskusstvo». Vip-2. M.1991
12. Il`ina T.V. Iстория искусства западноевропейского искусства.М., 2002
- 13.Yodgorov J. va boshqalar. Chizmachilik. - T: 1992.
- 14.Budasov B.V., Kaminskiy V.P. Stroitel`noe cherchenie i risovanie. M:
1990.
- 15.Pavlova A.A., Ro`ziev E.I. Qurilish chizmachiligidan qo`llanma.-
T:1994.
- 16.Pavlova A.A., Ro`ziev E.I. Qurilish chizmachiligidan topshiriqlar.
T:1994.
- 17.Odilov P.O. va boshqalar. Chizmachilik. – T: 2000.
18. www.pedagog.uz
19. www.nbgf.intal.uz
20. www.ziyonet.uz
21. www.edu.uz

